

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

KIMYO TEXNOLOGIYA FAKULTETI

“OZIQ – OVQAT TEXNOLOGIYASI”
KAFEDRASI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“OOT” kafedrasini mudiri

_____ Akbarova M.U

“ ____ ” _____ 2018 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING
hisoblash – tushuntirish xati yozuvi

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi:

**«Farg'ona yog'-moy» AJ da quvvati 6 tonna kun bo'lgan yog'larni gidrogenlash
sexini loyixalash. Asosiy uskuna: Avtoklav.**

Bitiruv malakaviy ishi tarkibi:

Hisoblash – tushuntirish xati: ____ bet. CHizma – grafik qismi: ____ listda tayyorlangan

Bitiruvchi:

51-14 “OOT” guruh talabasi

Umrzaqov Ilxom Alisher o'g'li

Raxbar:

Qosimov Muhammadjon G`oppirjonovich

Taqrizchi: _____

*Bitiruv malakaviy ishi 2018 yil ____ iyun kuni dastlabki ximoyadan o'tgan.
“OOT” kafedrasining 2018 yil ____ iyun kungi (№ ____ sonli majlis bayoni)
yig'ilish qaroriga asosan himoyaga ruxsat berilgan.*

Maslaxatchilar:

Iqtisodiy qismi bo'yicha:

G`oziyev X.

Xorijiy investisiya qismi bo'yicha:

Davlatshoyev A.

Mehnatni muxofazasi qismi bo'yicha:

Polvonov H.

FARG'ONA – 2018

MUNDARIJA:

1.Kirish.....	7
2.Texnologik jarayonlarning nazariy asoslari.....	13
3.Texnologik sxemani tanlash va asoslash	18
4.Texnologik tasvir bayoni.....	20
5.Xom - ashyo yordamchi materialar va tayyor mahsulotlarini tavsifi.....	21
6.Moddiy xisob.....	26
6.1.Uskunalarni tanlash va asosiy uskuna xisobi	32
6.2.Texnologik va fizik kimyoviy nazorat.....	41
7.Atrof muxitni muxofaza qilish	44
7.1. Fuqaro muhofazasi.....	45
7.2.Asosiy qurilma xisobi	53
7.3 Mexanik xisob.....	58
7.4 Hidravlik xisob	59
7.5.Asosiy qurilma bayoni	60
8. Avtomatlashtirish.....	62
9.Mehnatni muxofaza qilish.....	65
10.Iqtisodiy qism.....	67
11. Xorijiy investitsiya	80
12. Xulosa	84
13. Foydalanilgan adabiyotlar.....	85

1.Kirish

Respublikada moyli o'simlik urug'larini qayta ishlaydigan 40 ta korxonalar va qo'shma ,kichik korxonalar ishlab turibdi. Sanoatning bu tarmog'ida paxta, soya, raps moylari, meva danaklari hamda sabzavot urug'laridan olinib, atir-upa, farmasevtika va oziq-ovqat sanoati tarmoklarida ishlatiladigan yog'lar, margarin mahsulotlari, mayonez, kirsovun, atirsovun, texnika maqsadlari uchun bosh qaturli mahsulotlar ishlab chiqariladi. Respublika yog'-moy sanoati oziq-ovqat sanoati umumiy mahsuloti xajmining 40% ga yaqinini beradi.

Tarmoq korxonalarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar, xususan paxta moyi eksportga chiqariladi. Koson , Guliston yog' ekstraksiya zavodlari, Farg'ona yog' – moy kombinati Qo'qon yog'-moy kombinati, Katta qo'rg'on yog'-moy kombinati, Denov yog'-ekstraksiya zavodi, Urganch yog'-moy kombinati tarmoqdagi eng yirik korxonalaridir.

Qo'qon yog' – moy kombinati tarkibida meva danaklari va sabzavot urug'laridan moy ishlab chiqaradigan maxsus zavod ishlaydi. Bu zavodda 15 nomdagi meva danagi moylari (O'rik, shaftoli, pomidor, uzum, va b.q) ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Toshkent yog' – moy kombinatida margarin mahsulotlari va mayonez , tarmoqdagi 10 korxonalar Farg'ona, Yangiyo'l, Andijon, Urganch, Katta qo'rg'on va b. Yog'-moy kombinatlarida kirsovun ishlab chiqariladi.Farg'ona yog'-moy kombinatida (25,40,100 gramml) atir sovunlar ishlab chiqaradigan liniya o'rilmokda, gleserin ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Tarmoq korxonalarida texnologik jarayonlari avtomatlashtirish, xorijiy firmalar uskunalari bilan jixozlash ishlari davom etirilmokda.

Korxonalarini texnikaviy jixatdan qayta jixozlashda Krupp, Sket (Germaniya), «Alfa-Laval» (shvesiya), «Jon Braun2», «Karver», «Kraun» (AQSh), «Massoni», «Bollista», (Italiya), Germaniya, Polsha, Ukraina, Rossiya firmalari bilan hamkorlik yaxshi samara bermoqda.

Qadim zamonlardan buyon o'simlik moyi uchun xomashyo – zig'ir, nasha, paxta chigiti 1-o'rinni egallab kelgan. Kungaboqar Yevropaga Janubiy Amerika va Meksikadan keltirilgan. XVI-asr boshlarida Ispaniya o'zlashtirgan,

keyinchalik sharqda tarkala boshlagan. Moy olish uchun kungaboqarni Rossiyada yetishtirish 1829 yilga to'g'ri keladi.

XIX-asr oxirlarida chang mashinalar (jin) qo'llanilishi paxtachilikni to'qimachilik sanoati uchun xomashyo bazasi va moy olishni yanada rivojlanishiga olib keldi.

1913 yilda chigit hosilini yig'ini 174 ming t etdi. Birinchi moy zavodlari 1883-84 yillari Qo'qonda, keyin 1893 y. Kattaqo'rg'onda, 1922 y. Yangiyo'l shaxrida va 1930 y. Farg'ona 24 gidroressli zavod qurildi. 1936 yilda ekstraksiya usuli bilan chigitni qayta ishlaydigan sex Kattaqo'rg'onda yo'lga quyildi. Xalq xo'jaligida yog'lar katta ahamiyatga ega, chunki ular karbonsuvlar va Oqsillar bilan bir katorada ozik-ovqatning asosiy komponenti xisoblanadi. Yog'ning to'yimlilik quvvati korbonsuvlar va oqsillarga qaraganda 2-2,5 marta katta. Yog'larning tarkibida linol, linolen va araxidon kislotalari (vitamin F), vitamin E,D,A, karotin (provitamin A), fosfatidlar, sterinlar mavjud.

Yog'lar xalk xo'jaligining turli soxalarida, shuningdek texnik maqsadlarda (sovun, gliserin, olif ishlab chiqarishda) keng qo'llaniladi.

Xomashyo bazasining o'sishi bilan yog'ni qayta ishlash sanoati ham o'sib boradi. Yog'larni qayta ishlash sanoatining boshlang'ich xom ashyosi o'simlik yog'lari va mol yog'lari xisoblanadi. Ularning asosiylari kungaboqar va paxta yog'lari, qo'y va mol yog'laridir. Bizning mamlakatimizda qattiq va yarim qattiq yog'larning tabiiy resurslari cheklangan va xalk xo'jaligini extiyojini qoniqtirmaydi, shuning uchun suyuq o'simlik yog'larini gidrogenlash yo'li bilan qattiq yog'larga aylantiriladi va turli qattiqlikda va turli erish temperaturali gidrogenlangan yog'lar (salomas) olinadi, shuningdek gidrogenizasiya jarayonida soapstokdan ajratib olingan yog' kislotalari yoki yog'larning gidroliz vaqtida olingan yog' kislotalari ham ishlatiladi.

Yog'larni qayta ishlash sanoatida ishlatiladigan yog'larning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari standartlar bilan (GOST, OST, TU) aniqlanadi. Yog'larni qayta ishlash sanoatida o'simlik moylari va mol yog'lari bilan bir

qatorida turli yog' urishi bosuvchi moddalar keng ishlatiladi (konifol, neft kislotalari, ...).

Sanoat usulida olingan o'simlik moylari yog' kislotalarining trigliserid (triasilgliserol) aralashmasidan iborat, bu aralashma yog' bo'lmagan aralashma va hamrox moddalardan tuzilgan. Yog' bo'lmagan aralashmalarga mexanik aralashmalar (kovurilgan mag'iz, shrot bo'laklari va h.k.), namlik, zaxarli ximikatlardan va h.k. moddalar kiradi. Zaxarli ximikatlarning bo'lishi shu bilan izoxlanadiki, qishloq xo'jaligida o'simliklarni turli zararkunandalari va kasalliklar bilan kurashda turli zaxarli ximikatlardan (pestisidlar, gerbisidlar va h.k.) keng ishlatiladi, bu esa o'simlikning yog'li to'qimalarida yig'ilib boradi va yog' birga ajratib olinadi.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish birinchi navbatta iqtisodiyotni izchil islox etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikasiya qilishni chuqurlashtirish yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va raqobatdosh mahsulotlarning yangi turlarini o'zlashtirish bo'yicha qabul qilingan birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturiga muvofiq, 2012-2016 yillarda hisob-kitoblar bo'yicha qiymati 6 milliard 200 million dollar bo'lgan 270 dan ziyod investitsiya loyihasining, shuningdek, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha tarmoq dasturlarini amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash ishlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining roli tobora ortib borayotganini alohida ta'kidlashni istardim.

Mamlakatimizdagi raqobatdosh muhsulotlar ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini va boshqa tarmoqlarning eksport yarmarkalari o'tkazishni

kengaytirish, va yangi eksport shartnomalari tuzish uchun nufuzli xalqaro yarmarkalarga jalb etish bo'yicha alohida hukumat qarorini qabul qilish lozim.

“Yog-moy tarmog`ini jadal rivijlantirish chora-tadbirlari to`g`risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, Yog‘-moy tarmog‘ini zamonaviy bozor mexanizmlarini keng joriy etish asosida jadal rivojlantirishni ta‘minlash va yog‘-moy sanoatini boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida, shuningdek, 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasi vazifalariga muvofiq:

1. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan yog‘-moy mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish tizimlarini o‘rganish.
2. Yog‘-moy mahsulotlarini ishlab chiqarishning resurs bazasini kengaytirish, yog‘-moy korxonalaridagi asbob-uskunalarni modernizatsiya qilish, ularni ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish va hisobini yuritishning zamonaviy tizimlari bilan jihozlashni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi yog‘-moy tarmog‘ini jadal rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tuzish.
3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligining: shrot va sheluxani sotish bo‘yicha “Ozuqa yem ta‘minoti” MChJ korxonalarini tugatish; keyinchalik sanoatda qayta ishlash uchun mo‘ljallangan ekstraktli paxta yog‘i birja savdolari orqali faqat “O‘zpaxtayog‘” AJ korxonalariga sotilishi ta‘minlash.
4. 2019-yil 1-yanvarga qadar muddatga o‘simlik yog‘ini ishlab chiqaruvchilar import yog‘-moy xom ashyosi asosida ishlab chiqarilgan hajmlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lashdan ozod qilish.
5. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi Iqtisodiyot vazirligi va “O‘zdonmahsulot” AJ bilan birgalikda ikki oy muddatda omuxta yem ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha, jumladan:

-omuxta yem ishlab chiqarish yuzasidan amaldagi quvvatlarni inventarizatsiyadan o'tkazish;

-omuxta yem ishlab chiqarish uchun bozordagi ehtiyoj va mamlakatda mavjud bo'lgan resurs bazasini o'rganish;

-chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik sektorlari bo'yicha omuxta yem tayyorlashning ilmiy asoslantirilgan retsepturalarini ishlab chiqish;

makkajo'xori va boshqa boshoqli don ekinlaridan, shuningdek, yog'-moy, un mahsulotlari, spirt va pivo ishlab chiqarishdagi chiqindilardan omuxta yemning zamonaviy sanoat ishlab chiqarishini tashkil etish.

6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bir oy muddatda:

- chigitni qayta ishlovchi yog'-moy korxonalarini chigitni yuklash, qabul qilish, saqlash va qayta ishlash jarayonini real vaqt rejimida kuzatish, jumladan xom ashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni o'lchash va hisobini yuritish imkonini beruvchi avtomatlashtirilgan tizimlar bilan;

-chigit, paxta yog'i, shrot va sheluxani tashiydigan yuk avtomashinalarining harakatlanishini real vaqt rejimida monitoring qilib borish uchun ularni zamonaviy GPS trekerlar bilan jihozlash bo'yicha choralar ko'rsish vazifalari belgilab olindi.

O'zbekiston yaqin ikki yil ichida qo'shimcha aksiyalar chiqarish hisobiga 14ta yirik yog'-moy ishlab chiqarish korxonalarida davlat ulushini 51 foizgacha kamaytirishni mo'ljallamoqda.

Ayni paytda bu ulush 86 foizdan 53 foizgachani tashkil qilmoqda. Xususan, 113,4 ming tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega "Toshkent yog'-moy kombinati" AJda davlat ulushi 63 foizdan ko'proqni tashkil qiladi. Bundan tashqari, Qoraqalpog'istondagi "Chimbay may" AJ ning aksiyalari nazorat paketi (90,2 foiz)ni xorijiy investorga sotish mo'ljallanmoqda. Hozirda O'zbekistonda 50ta yog'-moy korxonasi faoliyat yuritadi.

Prognozlarga ko'ra, O'zbekistonda 2015 yilda o'simlik yog'i ishlab chiqarish hajmi yiliga 2011 yildagi 255 ming tonnadan 274 ming tonnagacha oshadi. Bu asosan soya, kungaboqar va maxsar o'simliklaridan olinadigan o'simlik yog'i hisobiga amalga oshiriladi.

2. Texnologik jarayonlarning nazariy asoslari.

Xalq xo'jaligining yog' maxsulotlariga bo'lgan extiyoji o'simlik yog'lari, mol yog'lari, saryog' va shunga o'xshash yog'lar xisobiga qondiriladi. Yog'larning bir qismigina (mol yog'lari, saryog') qattiq xolatda bo'lib, qolgan ko'p qismi suyuq xolda bo'ladi. O'simlik yog'laridan esa iqlimiy sharoitlarga qarab er sharining turli nuqtalarida turlicha xolatda tarkib topgan bo'ladi. Masalan tropik mamlakatlarda palma, kokos yog'lari qattiq xolda bo'ladi. Kungaboqar, paxta, soya, rapz va boshqa o'simlik yog'lari suyuq xolatda ishlab chiqariladi.

Qattiq yog'larga bo'lgan extiyojni o'simlik yog'larini gidrogenlab salomas ishlab chiqarish evaziga qoplanadi. Qattiq yog'lar sanoatda katta ahamiyatga ega, ular margarin, xo'jalik va atir sovunlar, stearin ishlab chiqarishda asosiy xomashyo xisoblanadi.

Biroq, MDX da tabiiy qattiq yog'lar miqdori chegaralangan, suyuq o'simlik yog'lari esa ko'p miqdorda ishlab chiqariladi. Shuning uchun suyuq yog'lar gidrogenlanib, qattiq xolga keltiriladi. Xozirgi vaqtda O'zbekistonda 2 ta gidrozavot ishlab turibdi.

Bu hol, oz miqdordagi molekulalargina energiyasining o'zlaridagi bog'larini o'zgartirib yangi bog'lar xosil qilish, ya'ni yangi birikma xosil qilish reaksiyasini amalga oshirish uchun etarli bo'lgan bunday faol molekulalarning minimal energiyasi uning faollash energiyasi deyiladi.


Gidrogenizasiyada kungaboqar, paxta loviya, raps yog'lari va soapstokdan ajratib olingan yog' kislotalari ishlatiladi.

Gidrogenizasiya vaqti xomashyoning kimyoviy tarkibiga va salomasning qo'llanishiga bog'liq.

O'simlik yog'larini qisman gidrogenizasiya qilish yo'li bilan, erish temperaurasi $T_{pl}=31-34^{OS}$, qattiqligi 160-320 g/sm, yod soni 62-82ga teng bo'lgan salomas olinadi, bu salomaslar margarin, kulinar yog'lar ishlab chiqarishda ishlatiladi. Bundan tashqari erish temperaturasi $T_{pl}=35-37^0$ S, qattiq ligi 550-750 g/sm bo'lgan salomaslar olinib, ular konditer mahsulotlarini ishlab chiqarishda ishlatiladi.

O'simlik yog'larini va yog' kislotalarini gidrogenizasiya qilish bilan texnik salomaslar olinadi, ularni xo'jalik va atir sovunlar, stearin kislotalarini oleinda ishlatiladi.

Vodorodning gidrogenizasiya jarayonida birikish ximimizlik shartli ravishda quyidagicha ko'rsatish mumkin.




Olein kislota

Stearin kislota


Oddiy sharoitda vodorod to'yinmagan yog' kislotalarga va gliserinlarga birikmaydi. Vodorodni yog' kislotalarga fakatgina katalizator ishtirokida birikadi.

Yog' kislotalarining o'zgarishi: gidrogenlashda yog' kislotalarining tarkibi uzgaradi.



Yog' kislotalarining to'yinmaganlik darajasi qancha katta bo'lsa, gidrogenlash tezligi shuncha yuqori bo'ladi. To'yinmagan yog' kislotalarining gidrogenlash tezligi trigliseridlar tuzulishiga bog'liq emas. Masalan, linol kislotasi trimenoleinda, monooleadimenol va boshqa trigliseridlarda bir xil tezlikda gidrogenizasiyalanadi.

Paxta yog'ini gidrogenlashda yog' kislotalari tarkibini o'zgarishi.



Gidrogenlash jarayonining tezligi: gliseridlarni gidrogenlash tezligi ulardagi yog' kislotalari tarkibiga katalizator aktivligi va miqdoriga, sistemadan vodorod

o'tkazishning intensivligi va uni yog'da bir tekis tarkalishiga, yog'ni qizdirish temperaturasiga bog'liq.


Katalizator qancha aktiv bo'lsa, gidrogenlash shunchalik tez kechadi. Katalizator imqdorini kupayishi, reaksiyani tezlashtiradi. Lekin katalizator yog' massasidan 0.3-0.4 %dan ko'proq olinsa, reaksiya tezligi sezilarli darajada ortmaydi. Temperatura oshishi bilan gidrogenlash tezligi ham oshadi. Sanoatda gidrogenlash 180-220^{oS} temperaturada olib boriladi. Gidrogenlash temperaturasi katalizator aktivligiga va yog' tabiatiga bog'liq.

L va Ol kislotalari bo'lgan yog'larni gidrogenlashda 1-bo'lib L kislotasi to'yinadi. 1ta kushbog'li bir nechta kislotalarda 1-bo'lib uglerod atom soni kam bo'lgan kislotaga to'yinadi (Ol kislotasi eruk S_{22:1} kislotasiga karaganda tezroq gidrogenlanadi).

Demak, selektivlik ko'shbog'larni tanlab to'yinnishdir. Selektivlik yog' kislotalarining to'yinmaganlik darajasi va molekulyar massasi bilan bog'langan bo'lsa ularni radikal selektivlik deyiladi.

Palmetin kislotasi bo'lgan gliseridlarda 1-navbatda Olein kislotasi to'yinadi (stearin kislotasi emas).

Trilinoleindagi Linol kislotasi 1-navbatda to'yinadi. Bunday tanlab to'yinishi – gliserid selektivlik deyiladi.



Amalda yog'larni gidrogenlash yod soni 50-80 bo'lguncha olib boriladi. shuning uchun selektivlik salomasning xususiyatiga ta'sir qiladi.

Ko'rsatkichlar paxta yog'i selek gidr yog' selek-magan gidr yog'

Y.s. % J ₂	109,8	71,0	73,2
Tpl, °S	-	30,6	35,5
Kislota tarkibi, %			
L	50,3	8,4	18,5
Ol	20,1	60,5	43,8
To'yingan	29,6	31,1	37,7

Gidrogenlash selektivligi quyidagi formula bilan topiladi.

$$S = K_I/K_{O_I}$$

Selektivlik jarayoni katalizator tabiatiga bog'liq. Cu-Ni katalizator Ni katalizatoriga qaraganda selektivroqdir, Ni ga qaraganda Pd katalizatori selektiv xisoblanadi. Ishlatilgan katalizator yangi katalizatorga qaraganda selektivliroqdir.


Selektivlik turli faktorlarga bog'liq (temperatura, H₂ bosimiga). Temperatura ko'tarilishi bilan selektivlik oshadi, vodorod bosimi oshishi bilan selektivlik kamayadi.

Yog' kislotalarining izomerizatsiyasi: yog'larni gidrogenlash jarayonida yog' kislotalarining izomerizatsiyasi sodir bo'ladi. quyidagi izomerizatsiyalar mavjud:

1) pozitsiyali izomerizatsiya





2) geometrik izomerizatsiya



Sisforma transformasi

Izokislotalarni xosil bo'lishi yarim gidrogenlanish mahsulotlarini xosilbo'lishi bilan izoxlanadi.





Izokislotalar erish temperaturasi bilan salomas qattiqligini oshiradi.

Masalan.	T _{pl} ^{0S}
9-10 sis Ol kislota	16
trans (elaidin)	44
11-12 sis	13
trans	39

3. Texnologik sxemani tanlash va asoslash

Qattiq yog'larga va yog' kislotalarga bo'lgan sanoat extiyojini qondirish uchun suyuq yog'lar gidrogenlanadi. Buning uchun yog' isitilib, katalizator qo'shib, vodorod bilan to'yintiriladi. Bunda temperaturani, katalizatorni va uni miqdorini o'zgartirib turli ko'rsatgichga ega bo'lgan salomaslar olish mumkin. Masalan: margarin tayyorlash uchun ovqatbop salomas, atir va kir sovun tayyorlash uchun yuqori, pasttirli salomaslar.

Odatda gidrogenizasiyani ancha ortiqcha vodorod bilan olib boriladi. Ortiqcha vodorod aralashmalarga ega bo'ladi. Vodoroddan 2-chi marta foydalanish uchun uni tozalash, yangi vodorod bilan aralashtirish kerak va undan keyin avtoklavga berish kerak.

Gidrogenizasiya kukunsimon mis-nikel katalizatori ishtirokida olib boriladi. Nikel-mis qimmatbaxo metallardir. Shuning uchun ular salomasdan ajratib olinadi va regenerasiya qilinib, yana qaytadan gidrogenizasiyada ishlatiladi.

Agar ishlatilgan katalizator etarli aktivlikka ega bo'lsa, uni yangi katalizatorga aralashtirilib qaytadan ishlatiladi.

O'simlik moylarni gidrogenlashda qo'llaniladigan avtoklav vertikal xolatdagi silindrsimon uskuna bo'lib, sferik qopqoq va tagdan tashkil topgan. Avtoklav kislotaga chidamli metaldan yasalgan. Avtoklav ichida 2-ta zmeeviklar sistemasi joylashtirilgan bo'lib, xar bir sistema 3-ta zmeevikdan atshkil topgan. Shu zmeeviklar sistemasidan 1-tasi o'simlik moylarini gidrogenlash jarayonidan oldin qizdirish uchun qo'llaniladi. Qizdirish bosimi 2.5-3.0 Mpa bo'lgan suv bug'i yordamida olib boriladi.

Avtoklavda gidrogenlash jarayonini olib borish uchun avtoklavga ma'lum miqdorda o'simlik moyi va xisoblangan miqdorda katalizatorning moyli suspenziyasini solinadi. Keyin xaroratni 220-230°S yetkazilib vodorod gazini vodorod barboteri yordamida xisoblanganligiga nisbatan 2-3 marta ortiqcha

beriladi. Hidrogenizasiya jarayoni tugagandan keyin xosil bo'lgan salomasni sovutish uchun 3-chi nomerli zmeeviklar sistemasiga sovuq suv beriladi. Hidrogenlashdakungaboqar, paxta, soya, raps yog'lari va soapstokdan ajratib olingan yog' kislotalari ishlatiladi. Hidrogenlash vaqti xomashyoning kimyoviy tarkibiga va salomasning qo'llanishiga bog'liq. O'simlik yog'larini qisman gidrogenlash bilan, erish harorati $T_{er}=31-34^{\circ}\text{C}$, qattiqligi 160-320 g/sm, yodsoni 62-82ga teng bo'lgan salomas olinadi, bu salomaslar margarin, kulinar yog'lari ishlab chiqarishda ishlatiladi. Bundan tashqari erish harorati $T_{er}=35-37^{\circ}\text{C}$, qattiqligi 550-750 g/sm bo'lgan salomaslar olinib, ular konditer mahsulotlarini ishlab chiqarishda ishlatiladi. Avtoklavdan avtoklavga yog' gaz lift yordamida o'tadi. Gazliftda ishchi gaz vodorod hisoblanadi. Gazlift ikkita bir-biriniichiga qo'yilgan truba bo'lib, u avtoklav tagigacha tushgan bo'ladi. Ichki truba orqali vodorod yuboriladi, bu trubaning pastki qismida mayda teshikchalar bor. Vodorod yog' bilan aralashib, kichik solishtirma og'irlikdagi aralashmani hosil qiladi. Shuni hisobiga trubadagi yog' ko'tariladi va biriktiruvchi truba orqali keyingi avtoklavga quyiladi. Yog' quyilishini ngezligi vodorod uzatilishini o'zgarishi bilan nazorat qilinadi. Gazliftda yog' katalizator bilan yanada yaxshiroq kontakt dabo'ladi, bu esa yog'ning to'la to'yinishiga olib keladi.

Loyixalashda uzluksiz ishlovchi usulini tanlashimizdan maqsad yog' moy ishlab chiqarish korxonasida elektrolit usulda vodorod ishlab chiqarish vodorodning tannarxini pastligi bo'lib vodorod ishlab chiqarishda qo'llaniladigan uskuna mustaxkamligi yuqori va vodorodni yuqori tozalikda tozalaydi. Shu bilan birgalikda asosiy xom ashyo suvning qiymati past va jarayon yuqori avtomatlashgan xolatda olib boriladi.

4. Texnologik tasvir bayoni.

Distillangan suv distilyator (2) dan kondensat yig'uvchi (3) ga kelib tushadi, u erddan nasos (4) bilan (5) bakka yuboriladi. Bu bakdan suvning bir qismi boshqa bak (6) ga yuboriladi, u erda konsentrasiyasi 29% yoki 320-380 g/l bo'lgan KON eritmasi tayyorlanadi va elektrolizyor (1) ga yuboriladi. Bak (7) lektrolizyor remonti va avariya xolatda bo'lgan KON eritmasini tushirib olish uchun xizmat qiladi. Elektrolizyorga doimiy elektr toki to'g'rilagich (выпрямитель) asbob orqali keladi. Elektroliz 80-85 S xaroratda amalga oshiriladi.

Olingan vodorod va kislorod gaz kanallariga keladi, keyin kondensator (12) da sovutiladi. Kondensatordan vodorod va kislorod gaz yig'uvchi (13) ga kelib yana sovutiladi va yuviladi, keyin esa gidrozavotlar (9, 10) orqali vodorod gazgolderga yuboriladi. Gidrozavotlar vodorod va kislorod sistemalariga bir xil bosim berib turadi

Gidrogenlash suyuq yog' tarkibidagi to'yinmagan yog' kislotalarini vodorod bilan to'yintirishga asoslangan. Bunday jarayon natijasida to'yinmagan suyuq yog' kislotalari pirovardida to'yingan va nisbatan yuqori xaroratda suyuqlanadigan kislotalariga ortadi. Gidrogenlangan yog'lar ishlab chiqarish texnologiyasi, shuningdek, uning ayrim bosqichdagi kimyoviy jarayonlar nixoyatda murakkabdir. SHu sababli yog'larni gidrogenlashda yuz beradigan jarayonlarning nazariy asoslarini o'rganish muxim ahamiyat kasb etadi.

Xar hil moddalarning molekular aro kimyoviy reaksiyasining amalga oshishi uchun bunday molekular o'zaro ta'sirda bo'lishi, ya'ni reaksiyaga kirishuvchi qismi bir-biri bilan to'qnashuvi zarur. Lekin, ma'lum xajmda joylashgan va bir-biri bilan kerakli yo'nalishda to'qnashgan bunday molekularning juda oz qismigina o'zaro ta'sirga kirishadi.

5.Xom - ashyo yordamchi materialar va tayyor mahsulotlarini tavsifi.

O'simlik moylari (paxta,soya,raps) TU-10-04-20-70-90 texnik salomas uchun quyidagi xom ashyo qo'llaniladi.

Past yodli salomas ishlab chiqarish uchun yaxshi eritilgan xayvon yog'i 1-sort yoki oliy navli rafinasiyalangan paxta polmetini ishlatiladi.

Yog' moyini gidrotlashga yuboilyotgan aralashmasi namligi 0,05% dan oshmasligi kerak.



Rafinatsiyalangan yog' moy tarkibida sovunli ishqor fosfotidlar, gosipol bo'lmasligi kerak.

Maxsulotdagi kislota soni ishqorli rafinasiyadan so'ng 0,25 mg KON oshmasligi kerak.

Salomas ishlab chiqarish uchun asosiy yordamchi materiallar texnik vodorod va kanalizator.

Vodorod ximyaviy formulasi H_2 gaz bo'lib rangsiz xidsiz bo'ladi. Avtoklavga berilyotganda 95% vodorod $CO-2\%$, $CO_2-0,4\%$, O_2 suv $3,2 m^3$ bo'lishi kerak.

Avtoklavda davriy usulda gidrolizlash uchun konussimon nikel mis katalizatorlar nikel va mis karbonatlarini birgalikda soda bilan quyidagi reaksiya bo'yicha cho'ktirishga asoslangan.



Katalizator tuzini olish uchun materiallar kerak bo'ladi.

- nikel sulfat texnik marka NS-1
- GOST 2265-73 qo'llaniladi.
- Miskuparosi GOST 19347-84
- Kalsiy sodasi 1-sort GOST 10689-70

Katalizatorni o'lchami $1-10^{-5}$ mkm bo'lib silkituvchi tegirmonda maydalanadi. Vodorod keng tarqalgan kimyoviy element hisoblanadi. Tabiatda faqat bog'langan (birikma) xolatda uchraydi. Masalan suvda 11%, tabiiy gaz va

neft uglevodorodlarida 25% ni tashkil etadi. Aynan mana shu moddalar vodorod ishlab chiqarish uchun xom-ashyo bazasi xisoblanadi.

Vodorod-zararsiz, rangsiz va tez alanganuvchan gaz bo'lib, barcha gazsimon moddalarga nisbatan juda engil hisoblanadi. Atmosfera bosimi va 0 C haroratda uning zichligi $0,09\text{kg/m}^3$ ga teng. Havо (kislорod) bilan qizdirilganda оson portlovchan, quyosh nuridan xosil bo'lgan statik elektr zaryadi va ko'pgina metallar bilan kontaktida elektr uchqunni paydo qiladigan aralashma xosil qiladi. Vodorod-xavo aralashmasining portlash chegarasi (oralig'i) (xajmiy foizlarda): quyi-4% N_2 , yuqorisi-75% N_2 .

Vodorod qiyin eruvchan gaz xisoblanadi. Moy, yog' kislotalarida oddiy sharoitda juda oz miqdorda eriydi, ammo xarorat va bosim oshirilganda erishi ortadi. Hidrogenlashda vodorodning nazariy solishtirma sarfi V_n (m^3/t) erishilgan to'yinmaganlik darajasining pasayishiga to'g'ri proporsionaldir:

$$V_n = 0,8825 (y.s_b - y.s_0),$$

Bu erda $y.s_b$ va $y.s_0$ – gidrogenlanayotgan yog'ning boshlang'ich va oxirgi yod sonlari.

Salomas ishlab chiqarishda vodorodning xaqiyqiy solishtirma sarfi sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Chunki vodorodning bir qismi gidrogenlash qurilmalarini puflab tozalaganda qurilmalar yaxshilab, zichlab yopilmaganda atmosferaga xamda salomas bilan chiqib ketadi.

Vodorodning xaqiyqiy solishtirma sarfi V_n (m^3/t) quyidagicha aniqlanadi.

Ozuqa salomas ishlab chiqarishda:

$$V_n = (0,95/1,1) \cdot (y.s_b - y.s_0);$$

Texnik salomas ishlab chiqarishda:

$$V_n = (1,05/1,25) \cdot (y.s_b - y.s_0);$$

Vodorod ishlab chiqarish usullari. Vodorod ishlab chiqarishni bir qancha usullari ma'lum. Shulardan gidrozavodlarda quyidagilar ishlatiladi:

- 1) Temir bug' usuli (kontaktli)
- 2) Tabiiy gazni konsentratsiyalash usuli
- 3) Elektrolitik usul


1. Temir bug' usuli. Bu usul temirning suv bug'i bilan oksidlanish reaksiyasiga asoslangan:



Hosil bo'lgan temir oksidi suv gazi bilan temir metaligacha qaytariladi.




Temir metali suv bug'i bilan yana oksidlanadi va x.k. Suv gazini olish bug'ni 1000 C da ko'mir bilan birikishiga asoslangan:




Bu usul 1903-yilda sanoat ishlab chiqarish usuliga aylangan. Bu usul kam quvvatli, qiyin usul xisoblanadi. Shuning uchun xozirgi vaqtda sanoatda ishlatilmaydi.


1. Tabiiy gaz konversiyasi bilan vodorod ishlab chiqarish. Tabiiy gaz tarkibida 95% metan bor. Metan konversiyasi ikki bosqichda boradi. Birinchi bosqichda metan SO va H₂ ga konversiyalanadi:



Ikkinchi bosqichda esa CO qaytarilgan suv xisobiga CO₂ gacha oksidlanadi:



Konversiya qilishdan oldin tabiiy gaz mis yoki rux oksidi joylashtirilgan reaktor orqali 300-400 C haroratda o'tkazib oltingurgut sulfididan tozalanadi:




Tozalangan gaz 700-850 C xarorat, 0,2 MPa bosim, 1:3 nisbattda suv bug'i bilan aralashtiriladi. Alyuminiy oksidida cho'ktirilgan turg'un nikel katalizatorida SO va H₂ konversiyalanadi (konversiyaning birinchi bosqichi). Konversiyalangan gaz 400-450 C xaroratda 1:1 nisbatda suv bug'i bilan aralashtirilib, turg'un promotorlangan temirli katalizator solingan reaktor orqali o'tkaziladi (konversiyaning ikkinchi bosqichi). Huddi shuningdek 150-250 C xaroratda Si katalizatori xam ishlatiladi.

Olingan gaz namlik, CO₂ va CO kabi aralashmalardan monoetanolamin eritmasi bilan tozalanadi. Tozaligi gazda 97,5-98,5% H₂; 0,6% CH₄ CO₂ va CO esa 2% bo'lishi kerak. Agar yaxshi tozalansa 99,8% bo'lishi mumkin.


Usulning afzalligi – vodorodning tannarxi pastligidir.

3.Suvni elektroliz qilish bilan vodorod ishlab chiqarish. Elektrolitning suvli eritmasiga tushirilgan ikkita elektrod (katod, anod) elektrolitXk yacheykani vijudga keltiradi. Bunda elektrodlarda elektrokimyoviy reaksiya yuz beradi. Elektroliz vaqtida quyidagi reaksiyalar sodir bo'ladi.

Katodda H₂ va gidrooksid iyonlari xosil bo'lishi bilan suv qaytariladi:



Anodda gidroksid ionlarining oksidlanishi natijasida suv va kislorod xosil bo'ladi:



Yig'indi tenglama $2\text{H}_2\text{O} = 2\text{H}_2 + \text{O}_2$ bo'ladi. Natijada vodorodning bitta xajmiga qo'shimcha maxsulot sifatida $\frac{1}{2}$ xajmda kislorod xosil bo'ladi. Bu jarayonning mexanizmi shundan iboratki, suvda gidrooksid va vodorod ionlari anod va katodga o'tadi, ularda esa vodorod va kislorod molekullari xosil bo'lib, ionlar razryadi yuz beradi. Toza suvning dissosatsiyasi va uning elektr o'tkazuvchanligi kichik, shuning uchun elektrolit eritmasi qo'llaniladi (KOH, NaOH).

Suv elektrolizi elektrolizerlarda olib boriladi. U elektrolit uchun vanna va unga tushirilgan elektrodlardan iborat. Suvni nazariy parchalash uchun elektrolit echeymasiga 1,23 V berish kifoya, amalda esa suvni parchalanishning quvvati 2-2,5 V ni tashkil etadi, unda quvvatning bir qismi elektr energiyasi sarfini kompensasiyalash, yacheykadagi elektrolitning ichki qarshiligini engishi uchun, katod va anod quvvatini oshirish uchun ketadi.

Vodorod-zararsiz, rangsiz va tez alanganuvchan gaz bo'lib, barcha gazsimon moddalarga nisbatan juda engil xisoblanadi. Atmosfera bosimi va 0 S xaroratda uning zichligi 0,09kg/m³ ga teng. Xavo (kislorod) bilan qizdirilganda oson portlovchan, quyosh nuridan xosil bo'lgan statik elektr zaryadi va ko'pgina metallar bilan kontaktida elektr uchqunni paydo qiladigan aralashma xosil qiladi. Vodorod-xavo aralashmasining portlash chegarasi (oralig'i) (xajmiy foizlarda): quyi-4% H₂, yuqorisi-75% H₂.

6.Moddiy xisob.

Gidrogenlashning moddiy hisobi salomas ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xomashyolar ya'ni yog', vodorod va katalizatorning yog'li suspenziyasi miqdorlarini aniqlashga asoslangan.

Hisobotni paxta yog'ini boshqa xillari uchun hisoblanganda quyidagi hisobotlar o'zgarmaydi.

Xomashyo va materiallar sarf miqdori 6t gidrogenizasiyaga berilayotgan yog' miqdori 6t gidrogenizasiyaga berilayotgan yog' miqdoriga nisbatan olib boriladi so'ngra 6t tovar salomas uchun hisoblanadi.

Hisoblash uchun dastlabki ma'lumotlar

1. Gidrogenlashga berilayotgan yog'ning yod soni. $J_1=110\% J_2$
2. Olingan salomasning yod soni. $J_2=72\% J_2$
3. Katalizator sarf me'yori, $d=2$ kg/t
4. Sarflanayotgan katalizatorning tarkibi, 20% ya'ni, 80% aylanma.
5. Katalizator – mis nikel, nikelning misga nisbati 3:1, eltuvchisiz.
6. Sex quvvati kuniga 100t oziqa salomasi yoki 6,25 t/soat

Vodorod sarfi

6 tonna uchasil gliseridni to'yintirish uchun vodorodning nazariy sarf miqdori quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$V=10 (J_1 - J_2)/126,9 = 10 (110-72)/126,9=2,99 \text{ kg/t}$$

$$1 \text{ _____ } 2,99=6 \text{ _____ } X=17,94$$

Oddiy sharoitda 1t yog' uchun quruq vodorod sarf miqdori (nm^3) (bosim 0,6MPa va harorat 10^0C) quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$V_{\text{sux}}=10 (J_1 - J_2)/(126,9-0,0898)=(J_1 - J_2)/1,14= (110-72)/1,14=33,3 \text{ nm}^3/\text{t}$$

$$1 \text{ _____ } 33,3=6 \text{ _____ } X=199,8$$

bu yerda: 126,9 – yodning molekulyar og'irligi

0,0898 – oddiy sharoitda vodorodning zichligi kg/nm^3

$R = 103,3 \text{ KPa}$, $T_k=293\text{K}$ gazdagi suv bug'i bosimi

$R_1=2,3 \text{ KPa}$ va vodorod nisbiy namligi $\varphi=0,85$ bo'lganda nam

vodorodning hajmi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$V_{\text{nam}} = V_{\text{quruq}} \frac{(RT_k)}{(R-R_1 \varphi)T_o} = 199,8 \frac{(103300 \cdot 293)}{(103300 - 2300 \cdot 0,85)} \cdot 273 = 218,4 \text{ m}^3/\text{t}$$

Vodorod bilan sistemani tozalashga sarf bo'lgan 5%ni hisobga olgan holda vodorodni umumiy sarf miqdori quyidagicha

$$V_{\text{umumiy}} = V_{\text{nam}} \cdot 1,05 = 218,4 \cdot 1,05 = 299,32 \text{ m}^3/\text{t}$$

Katalizator sarfi

Yog'larni gidrogenlash zavodlari tajribasiga asosan katalizator sarfi 20% yangi va 80% aylanma katalizatorlardan foydalaniladi.

Tajribalarga asosan katalizator sarf me'yori $d_{\text{ya}}=12\text{kg}/\text{t}$ ni (nikelga nisbatan) tashkil qiladi. Sarflanadigan katalizatorni yaxshi harakatlanishi va dozalash oson bo'lishi uchun uni issiq rafinasiyalangan yog' bilan suyultiriladi. Bunda nikel konsentrasiyasi o'rtacha 12% ni tashkil etadi. Katalizatorning yog'dagi suspenziyasining sarf miqdori: 600 kg/t ga teng buladi. Sarflanadigan katalizatoridagi yog' miqdori

$$600 - 12 = 588 \text{ kg}/\text{t}$$

Katalizator chiqindilari va yo'qotishlar

Katalizatorlarni yo'qotishlar quyidagi qismlardan iborat: Tayyor mahsulotdagi nikelni qoldiq miqdori, yog' kislotalarining sovunlari bilan

birgalikda 30 mg/kg dan ko'p emas; $P_1=0,03$ kg/t mexanik filtrlar yuzasini regenerasiya qilishda (tozalash, yuvish) $P_2=0,09$ kg/t;

Filtr matoning sarf miqdori – $0,9$ m²/t dan ko'p bo'lmasligi kerak. VNIJ ma'lumotlariga ko'ra ishlatilgan filtr matoda nikel miqdori 480g/m²bo'ladi. Filtr matoda nikel katalizatorni yo'qotish miqdori

$$P_3=0,480 \cdot 0,9=0,432 \text{ kg/t};$$

hisobga olinmagan boshqa yo'qotishlar

$$P_4=0,048 \text{ kg/t};$$

Gidrogenizasiya jarayonida katalizatorning yo'qotishlar miqdori

$$P_{\text{umumiy}}= P_1 + P_2 + P_3 + P_4=0,03+0,09+0,48+0,048=0,648 \text{ kg/t}$$

Chiqindilar miqdori jarayonga berilgan yangi katalizatoridagi nikel massasi bilan yo'qotilgan nikel massalari ayirmasiga teng.

$$d_y=d_{ya} \cdot 0,20 - P_{\text{um}}=12 \cdot 0,2 - 0,648=1,752 \text{ kg/t}$$

bu yerda: sarflanadigan katalizatoridagi yangi katalizator miqdori – 20%

Gidroliz natijasida yo'qotishlar

Paxta yog'ini to'yintirib oziqa salomasi olishda gidrolizga uchragan yog' miqdori, $u=19,2$ kg/t ga teng deb qabul qilamiz.

Paxta yog'i gidrolizida hosil bo'lgan yog' kislotalar miqdori gliserid massasining 95,5% ni tashkil etadi.

$$h=u \cdot 95,5/100=19,2 \cdot 95,5/100=18,336 \text{ kg/t}$$

Gidrolizda yog'ni yo'qotish miqdori

$$P_1=u - h=19,2-18,336=0,864 \text{ kg/t}$$

Aylanma vodorodni tozalash sistemasidagi chiqindi va yo'qotishlar.

Gliseridlarni gidrolizida hosil bo'lgan erkin yog' kislotalarning o'rtacha 20% miqdori avtoklavdan chiqib ketayotgan vodorodga ilashib, vodorod tozalash sistemasiga o'tib ketadi:

$$h_1=0,2 \quad h=0,2 \cdot 18,336=0,1728 \text{ kg/t yoki } h_2= h_1 \cdot 6,25=1,08 \text{ kg/soat}$$

hosil bo'lgan yog' kislotalarning qolgan miqdori olinayotgan salomas tarkibida eriydi.

$$h_2= h - h_1 \quad h \quad 18,336-0,1728=18,1632 \text{ kg/t}$$

VNIJ ma'lumotlariga binoan avtoklavdan chiqib ketayotgan 6m^3 quruq vodorod o'zi bilan o'rtacha $a=150\text{g}$ yog'li moddalarni olib ketadi. Umumiy chiqib ketayotgan vodorod hajmi $V_{\text{ort}}=5400\text{m}^3/\text{g}$ ga teng bo'lib, o'zi bilan olib ketilayotgan yog'li moddalar miqdori $u_e=a \cdot V_{\text{ort}}=150 \cdot 5400=810000 \text{ g}$ keyingi hisoblarda $u_e=810 \text{ kg/soat}$ ga teng deb qabul qilamiz.

Shu jumladan $h_2=1,08 \text{ kg/s}$ – yog' kislotalar

$$J_n=808,92 \text{ kg/s neytral yog'}$$

Gidrogenlanadigan 6t yog'dan olib ketiladigan yog'li moddalar miqdori:

$$u_{\text{ud}}=810/6,25=129,6 \text{ kg/t}$$

Tomchi ajratgich va aylanma vodorod siklonida 90% yog'li moddalar ajratiladi.

$$O_1=U_e \cdot 0,9=810 \cdot 0,9=729 \text{ kg/s } =116,64 \text{ kg/t}$$

Bu yog' qizil salomas deyiladi va texnik maqsadda ishlatiladi.

Suvli skrubberga $129,6-116,64=12,96 \text{ kg/t}$ yoki

$$U_4=12,96 \cdot 6,25=81 \text{ kg/soat yog'li moddalar o'tadi.}$$

Suvli skrubberda kondensatlangan yog'li moddalarning 40% miqdorda yog' ajratgichga suv bilan chiqib ketadi yoki $12,96 \cdot 0,4=5,184 \text{ kg/t}$ yog' tutgichning foydali ish koeffisientini 50% ga teng bo'lsa, o'rtacha $O_2=5,184 \cdot 0,5=2,592 \text{ kg/t}$

sifati past bo'lgan texnik yog' tutib qolinadi. Qolgan yog'li yo'qotishlarga chiqib ketayotgan vodorod bilan yo'qotishlar kiradi.

Umumiy bu operatsiyada yo'qotishlar miqdori:

$$P_2 = 12,96 - 2,592 = 10,368 \text{ kg/t}$$

Ishlatilgan katalizator bilan yog' yo'qotish, tajribalarga asoslanib:

$$P_3 = 17,8 \text{ kg/t ga teng buladi.}$$

Salomasni filtrlashda yog' yo'qotishlar miqdori filtr mato massasining 50%ni tashkil etadi. Mato sarfi – 0,9 m²/t

$$P_4 = 0,9 \cdot 0,54 \cdot 0,5 = 2,43 \text{ kg/t}$$

bu erda: 0,9 – filtr mato massasi, kg/m²

Boshqa hisobga olinmagan yog'li yo'qotishlar

$$P_5 = 2,97 \text{ kg/t}$$

Gidrogenizasiya jarayondagi umumiy yog'li yo'qotishlar miqdori:

$$P_{1-5} = 5,184 + 10,368 + 17,8 + 2,43 + 2,97 = 38,752 \text{ kg/t}$$

Gidrogenlash jarayonidagi umumiy yog' yo'qotishlar tomchi ajratgichda yig'ilgan O₁ = 116,64 kg/t qizil salomas hamda yog'yig'gichda yig'ilgan texnik yog' O₂ = 2,592 kg/t hisobiga hosil bo'ladi.

Umumiy chiqindilar miqdori:

$$O = O_1 + O_2 = 116,64 + 2,592 = 119,232 \text{ kg/t}$$

Paxta yog'idan oziqa salomasi ishlab chiqarishdagi umumiy chiqindi va yo'qotishlar miqdori

$$I = O + P_{1-5} = 119,232 + 38,752 = 157,984 \text{ kg/t}$$

Salomas chiqishi:

$$A_r = 1000 + d - i = 1000 + 17,94 - 157,984 = 859,956 \text{ kg/t}$$

bu yerda: d – birikkan vodorod massasi

$$(d = 17,94 \text{ kg/t})$$

6 tonna oziqa salomas ishlab chiqarish uchun paxta yog'i sarf miqdori

$$V = 1000 \cdot 6000 / A_r = 1000 \cdot 6000 / 859,956 = 6977,10 \text{ kg/t}$$

Paxta yog'ini gidrogenlash balansi

6.1- Jadval.

Ko'rsatkichlar	Miqdori, kg/t		Ko'rsatkichlar	Miqdori, kg/t	
	Gidrogenlanayotgan yog'	Olina-yotgan salomas		Gidrogenlanayotgan yog'	Olina-yotgan salomas
Berilayotgan yog' (moy)	6000,0	6977,10	Salomas	842,016	859,956
Shu jumladan: Avtoklavga beriladigan yog'	5880	6857,10	Chiqindi va qaytmas yo'qotishlar	38,752	157,984
Katalizatoridagi yog'	120	120	Shu jumladan chiqindi, yo'qotishlar	116,64 0,9	119,232 2,43
Birikkan vodorod	17,94	17,94			
